

ISLOM HUQUQIDA SUD-HUQUQ SOHASINING TARIXIY VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17390749>

Sherboyev Nodirbek

Imom Buxoriy nomidagi

Toshkent islom instituti xodimi

Sherboyev0303@example.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Islom huquqi (fiqh) tizimidagi sud-huquq sohasi, uning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari keng tahlil qilinadi. Asarda qozilik institutining Qur'on va Sunnatdagi asoslari, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning shaxsiy sudlov faoliyati, ularning sahobalarga bergan ko'rsatmalari hamda tobein va mujtahid imomlar tomonidan ushbu an'ananing davom ettirilishi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, Xulafoi roshidin davrida sud-huquq tizimining amaliy rivoji, qozilarning tayinlanishi va ularning faoliyat tamoyillari tahlil etiladi. Maqola Islom huquqining nazariy va amaliy jihatlarini uyg'unlashtirgan holda, ijtiho, adolat va ilohiy hukmning o'zaro bog'liqligini ko'rsatib beradi. Natijada, Muhammad (s.a.v.) davridan to tobeinlar va to'rt fiqh mazhabi imomlari davrigacha bo'lgan davrda sudlov tizimining uzviylik va ilmiy an'analar asosida shakllangani ilmiy xulosalar bilan asoslanadi.

Kalit so'zlar

Islom huquqi, fiqh, qozilik, sud-huquq tizimi, ijtiho, adolat, Qur'on, Sunnat, Xulafoi roshidin, tobeinlar, mujtahid imomlar, shariat, hukm chiqarish, fatvo, fiqhiy manbalar.

Islom huquqi (fiqh) o'z tarkibida bir necha asosiy tarmoqlarni mujassamlashtirgan bo'lib, ulardan biri sud-huquq sohasi – ya'ni nizolarni hal qilish, da'vo va javoblarga hukm chiqarish tizimidir. Ushbu soha amalda qozilik faoliyati orqali amalga oshiriladi. Qozilik – bu islom huquqining amaliy jihatlarini hayotga tatbiq etuvchi eng muhim mexanizmdir. U orqali nafaqat adolat qaror topadi, balki islomiy jamiyatda tinchlik, tartib va ijtimoiy barqarorlik saqlanadi.

Qur'oni Karimda hukm chiqarish, adolatli qaror berish to'g'risidagi bir necha oyatlar mavjud. Masalan, Anfol surasi, 1-oyatda Alloh taolo shunday deydi:

*"Sendan o'ljalar haqida so'rarlar. Sen: "O'ljalar Alloh va Rasulinikidir. Bas, Allohga taqvo qilinglar va o'z oralaringizni isloh etinglar. Agar mo'min bo'lsangiz, Allohga va Uning Rasuliga itoat qilinglar", – deb ayt"*²⁴.

Bu oyatda hukm chiqarish vakolati Alloh va Rasuliga bog'langani, ularning ko'rsatmalari asosida harakat qilish lozimligi bildiriladi.

Shuningdek, Niso surasi, 58-oyatda quyidagicha buyuriladi:

*"Albatta, Alloh sizlarga omonatlarni o'z ahliga topshirishingizni va odamlar orasida hukm qilganingizda adolat ila hukm qilishingizni amr qilur. Alloh sizlarga qanday ham yaxshi va'z qilur! Albatta, Alloh o'ta eshituvchidir, ko'rib turuvchidir"*²⁵.

Bu oyat bevosita sudlov faoliyatining eng asosiy tamoyili – adolat bilan hukm qilish zarurligini belgilaydi. Bu hukm qilish vazifasining ilohiy buyruq ekanini ko'rsatadi.

Sunnatda ham bu masalaga katta e'tibor berilgan. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) o'zlarining hayotlarida bir necha bor sudlov (qozilik) faoliyatini bajarganlar. Masalan, sahih hadisda kelishicha, Muoz ibn Jabal (r.a.)ni Rasululloh (s.a.v.) Yaman viloyatiga qozi sifatida yuborganlar. Jo'nashidan oldin undan:

*"Nima bilan hukm qilasan?" deb so'raganlar. U: "Allohning kitobi bilan." deb javob qilgan. Rasululloh: "Agar unda topmasang-chi?" deganlar. U: "Rasululloh sunnati bilan." degan. So'ng yana so'ralganda, u: "Unda ham topmasam, o'z ijti hodim bilan hukm qilaman." degan. Rasululloh bunga: "Allohga hamd bo'lsin, Rasulining elchisini Rasulini rozi qiladigan yo'lga muvaffaq qildi," – deb mamnun bo'lganlar"*²⁶.

Bu hadis qozilik faoliyatining ilk namunalaridan biridir. Unda hukm chiqarish – Qur'on, Sunnat va ijti hod asosida amalga oshirilishi kerakligi ochiq ko'rsatilgan.

Shu bilan birga, Muhammad (s.a.v.) o'zlari ham sahobalar o'rtasida kelishmovchilik bo'lsa, ularga qaror chiqarganlar. Bu qarorlar Qur'on va Sunnatga tayangan holda amalga oshirilgan, bu esa sud-huquq faoliyatining bevosita ilohiy manbalarga tayanishini ko'rsatadi.

²⁴ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Qur'oni Karim va uning ma'nolar tarjimasini. – Toshkent: Hilol nashr, 2022. – B. 177.

²⁵ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Qur'oni Karim va uning ma'nolar tarjimasini. – Toshkent: Hilol nashr, 2022. – B. 87.

²⁶ Abu Dovud. Sunan. – Bayrut: Dar al-Fikr al-'Arabi, 1987. – B. 592. Termiziy. Sunan. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1994. – B. 327.

Islom dini ilk marhalalardanoq adolat tamoyilini asosiy maqsad sifatida ilgari surgan. Qur'oni Karimda bu borada ochiq ko'rsatmalar mavjud bo'lib, Muhammad (s.a.v.)ning shaxsiy amaliyoti ham sudlov faoliyatining eng erta namunalarini tashkil etadi. U zot nafaqat payg'ambar, balki siyosiy rahbar va oliy qozi sifatida ham hukm chiqarish vakolatini bajarganlar.

Muhammad (s.a.v.) Makka davrida qozilik faoliyati bilan shug'ullanish imkoniga ega bo'lmagan bo'lsalar-da, Madina davridan boshlab sudlov tizimi bevosita u zot rahbarligida tashkil topa boshlagan. Muhammad (s.a.v.) Madinaga kelgach, yangi tashkil etilgan musulmon jamoasini ijtimoiy-siyosiy jihatdan mustahkamlash, musulmonlar va yahudiylar o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy asosga qo'yish zarurati tug'ildi. Shundan keyin tuzilgan "Madina konstitutsiyasi" (al-Mithaq al-Madinah) – shahar aholisi (musulmonlar, yahudiylar va boshqa jamoalar) o'rtasida yuzaga keladigan ixtiloflarni Muhammad (s.a.v.) yechuvchi shaxs sifatida tan olganini ko'rsatadi²⁷.

Qur'oni Karimning Niso surasi, 105-oyatida Alloh taolo Muhammad (s.a.v.)ga bevosita hukm qilish vakolatini bergan:

*"Albatta, Biz senga Kitobni odamlar orasida Alloh senga ko'rsatganidek hukm qilishing uchun haq ila nozil qildik Sen xoinlarning yonini oluvchi bo'lma"*²⁸.

Bu oyat Muhammad (s.a.v.)ning sudlov faoliyatini shariat asosida olib borganini tasdiqlaydi. Yana bir oyatda, Moida surasi, 42-oyatda, yahudiylar o'z masalasida Muhammad (s.a.v.)dan hukm chiqarishni so'raganlari zikr qilinadi:

*"Ular yolg'onni ko'p eshituvchilar, haromni ko'p yeyuvchilardir. Agar senga kelsalar, oralarida hukm chiqar yoki ulardan yuz o'gir. Agar ulardan yuz o'girsang, senga hech zarar keltira olmaslar. Agar hukm qilsang, oralarida adolat ila hukm qil. Albatta, Alloh adolat qiluvchilarni sevir"*²⁹.

Bu oyatga sabab bo'lgan voqea tafsir kitoblarida keltirilgan: yahudiylardan bir erkak va ayol zino qilgan bo'lib, ular o'zlaridagi toshbo'ron jazosini yashirib, yengilroq hukm chiqarilishiga umid qilib, Muhammad (s.a.v.)ga murojaat qilganlar. Rasululloh (s.a.v.) ularning Tavrotidagi haqiqiy hukmni ochib berib, shunga muvofiq hukm chiqargan³⁰.

Muhammad (s.a.v.) sudlov faoliyatida adolat prinsipiga sodiqlik bilan yondashgan. U zot aytadi:

²⁷ Vatt, V. M. Muhammad at Medina. – Oxford: Oxford University Press, 1956. – B. 221–224.

²⁸ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Qur'oni Karim va uning ma'nolar tarjimai. – Toshkent: Hilol nashr, 2022. – B. 95.

²⁹ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Qur'oni Karim va uning ma'nolar tarjimai. – Toshkent: Hilol nashr, 2022. – B. 114.

³⁰ Ibn Hajar al-Asqalani. Fath al-Bari. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2000. – J. 12. – B. 167.

“Sizlar menga da’volaringizni keltirasizlar. Balki, sizlardan kimdir o’z dalilini boshqasidan ko’ra aniqroq bayon qilar. Men esa eshitganimga qarab hukm chiqaraman. Kimga birovning haqqini (nohaq) berib qo’ysam, bas, olmasin. Chunki, men unga do’zaxdan bir parcha bergan bo’laman”³¹.

Bu hadis Muhammad (s.a.v.)ning sudlovdagi prinsiplarini aniq ifodalaydi: dalillarga tayangan holda hukm chiqarish, lekin insoniy jihatdan xato ehtimolini inkor qilmaslik.

Muhammad (s.a.v.) sahobalar orasida ham hukm chiqargan. Masalan, Bir ansoriy erkak Bani Zafar qabilasidan bir kishini o’ldirganligi aniqlangach, Rasululloh (s.a.v.) “Qasos qiling, o’ldirgan odam o’ldiriladi” deb hukm qilgan³².

Yana bir mashhur misol: Muoz ibn Jabal (r.a.)ning Yaman viloyatiga qozi etib tayinlanishi. Ketishidan oldin Rasululloh (s.a.v.) undan shunday so’ragan:

“Nima bilan hukm qilasan?” – “Allohning kitobi bilan.” “Agar unda topmasang-chi?” – “Rasulining sunnati bilan.” “Unda ham topmasang-chi?” – “O’z ijthodim bilan.” Rasululloh (s.a.v.): “Allohga hamd bo’lsin, Rasulining elchisini roziligi bilan muvaffaq qildi”³³.

Bu voqea qozilikning uchta asosiy manbaga tayanganini ko’rsatadi: Qur’on, Sunnat, va Ijthod. Shuningdek, qozining ijthodi hujjat bo’lishi va javobgarligi borasida ilk metodologik asos sifatida bu hadis tarixiy va huquqiy ahamiyatga ega.

Muhammad (s.a.v.) o’z hayotlarida muhim nizolarni ham o’z qo’llari bilan hal qilganlar, masalan, Ka’ba devorining buzilgandan keyin “Hajr al-Asvad” (Qora tosh)ni joyiga qo’yish borasidagi tortishuvda, Quraysh qabilalari o’rtasidagi ixtilofni u zot adolatli yo’l bilan hal qilgan³⁴.

Muhammad (s.a.v.) vafotlaridan so’ng xalifalik lavozimi orqali diniy va siyosiy rahbarlikni davom ettirgan to’rt xalifa – Abu Bakr as-Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon va Ali ibn Abu Tolib (r.a.)lar davrida sudlov tizimi nafaqat saqlab qolindi, balki rivojlantirildi va amaliy tajriba bilan boyitildi. Bu davrda sud-huquq tizimi davlat boshqaruvining ajralmas qismi sifatida faol ishlagan.

Abu Bakr as-Siddiq (r.a.) davrida. Payg’ambar (s.a.v.)dan keyingi ilk rahbar sifatida Abu Bakr (r.a.) huquqiy masalalarda Qur’on va Sunnat asosida hukm chiqargan. Ularning xalifalik davrida yangi qonuniy hodisalar kam bo’lganligi

³¹ Imom Buxoriy. Sahih al-Buxoriy. – Madina: Maktabat al-Ma’arif, 1997. – J. 3. – B. 2458.

³² Abu Dovud. Sunan, Kitab al-Diyat. – Bayrut: Dar al-Fikr al-‘Arabi, 1987. – B. 327.

³³ Abu Dovud. Sunan. – Bayrut: Dar al-Fikr al-‘Arabi, 1987. – B. 3592. Termiziy. Sunan. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1994. – B. 1327.

³⁴ Ibn Hisham. As-Sira an-Nabaviyya. – Bayrut: Dar al-Fikr, 1968. – J. 1. – B. 224–225.

sababli, ko'proq Muhammad (s.a.v.)dan meros qolgan sudlov tajribasi davom ettirilgan. Abu Bakr (r.a.)ning hukm chiqarishdagi uslubi haqida Umar ibn Xattob (r.a.) aytgan:

“Agar Alloh menga bir mushkullikni yuzaga keltirsa, men Abu Bakr (r.a.)ning hukmlariga qarayman. Agar u ham hukm qilmagan bo'lsa, Qur'on va Sunnatga tayanib hukm qilaman”³⁵.

Umar ibn Xattob (r.a.) davrida. Xulafoi roshidin davrida sud-huquq tizimi eng barqaror va rivojlangan holatga aynan Umar ibn Xattob (r.a.) davrida yetgan. U butun islomiy davlat bo'ylab qozilar tayin qilgan, ularning vakolatini aniqlashtirgan, va ular faoliyatini nazorat qilgan. Umar (r.a.) tomonidan qozilik faoliyatiga qo'yilgan talablar juda qat'iy bo'lgan. U zot aytgan: “Qozini tanlashda ikki xislatga qaranglar: biri – ilm, ikkinchisi – adolat”³⁶.

Umar ibn Xattob (r.a.) qozilar uchun maxsus yozma ko'rsatma – “Risalat al-Qada” (sudlov xati) tayyorlab, uni qozilarga yuborgan. Ushbu hujjatda quyidagi asosiy tamoyillar ilgari surilgan:

- Da'vogar dalil keltirsin, inkor qiluvchi qasam ichsin;
- Ikki adolatli guvoh guvohlik qilmasa, da'vo o'z-o'zidan haq bo'lmaydi;
- Nohaq hukm qilishdan Allohdan qo'rqilsin;
- Shaxsiy fikr emas, shariat manbalari asosida hukm chiqarilsin³⁷.

Umar ibn Xattob qozilikni siyosiy lavozimdan farqlagan, ularni mustaqil va adolatli faoliyat yuritishga da'vat qilgan. U shunday degan:

“Qozilar amirlar kabi emas, ular haqni gapirishda hech kimdan cho'chimaydi”³⁸.

Usmon ibn Affon (r.a.) davrida. Usmon (r.a.) davrida islom davlati yanada kengaydi. Bu esa huquqiy masalalarni ham ko'paytirdi. U zamonaviy til bilan aytganda, “viloyatlarda mahalliy sud tizimlari”ni joriy qildi. Mamlakatning turli hududlariga (masalan, Kufa, Basra, Misr) malakali qozilar yuborilgan. Sud amaliyoti va yozma hujjatlar bilan ishlash kengaygan.

Ali ibn Abu Tolib (r.a.) davrida. Ali (r.a.) o'z davrining eng bilimdon faqihlaridan biri bo'lgan. U ko'plab murakkab huquqiy nizolarni hal qilgan va yuqori darajadagi ijtihodiy hukmlar chiqargan. U zot aytgan:

³⁵ Ibn Qayyim al-Javziyya. I'lam al-Muwaqqi'in 'an Rabb al-'Alamin. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1996. – J. 1. – B. 75.

³⁶ Ibn Sa'd. Tabaqat al-Kubra. – Bayrut: Dar Sadir, 1957. – J. 3. – B. 281.

³⁷ Ibn Qayyim al-Javziyya. I'lam al-Muwaqqi'in 'an Rabb al-'Alamin. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1996. – J. 1. – B. 97–98. Shavkaniy. Nayl al-Awtar. – Bayrut: Dar al-Jil, 1973. – J. 8. – B. 229.

³⁸ Al-Mavardi. al-Ahkam al-Sultaniyya. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1994. – J. 1. – B. 81.

“Agar odamlar orasida hukm qilayotgan bo’lsang, dalilsiz gapirma, agar bilmasang, sukut qil. Alloh oldida bunga javobgarsan”³⁹.

Ali (r.a.) o’z qo’li bilan qozilar tayinlab, ularni yozma ravishda hujjatlarga rioya qilishga da’vat qilgan. Bu davrda fiqhiy tafovutlar boshlangan, shuning uchun qozilarning mustaqil ijtihodi ko’proq ahamiyat kasb etgan.

Muhammad (s.a.v.) vafotidan so’ng xalifalik lavozimi orqali diniy va siyosiy rahbarlikni davom ettirgan to’rt xalifa – Abu Bakr as-Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon va Ali ibn Abu Tolib (r.a.)lar davrida sudlov tizimi nafaqat saqlab qolindi, balki rivojlantirildi va amaliy tajriba bilan boyitildi. Bu davrda sud-huquq tizimi davlat boshqaruvining ajralmas qismi sifatida faol ishlagan.

Yuqoridagi hadislardan ma’lum bo’ladiki fatvo ilmining shakllanishi asri saodat bilan bog’liq. Bu yo’lni keyinchalik sahobalar (r.a.) davom ettirishga qattiq bel bog’ladilar. Hattoki ular orasidan yetti mashhur sahobalar ko’p fatvo berish bilan ajralib turdilar. Bu sahobalar: Umar ibn Xattob, Aliy ibn Abu Tolib, Abdulloh ibn Mas’ud, Zayd ibn Sobit, Abdulloh ibn Abbos, Abdulloh ibn Umar va Ummul-mo’minin Oisha (r.a.).

Keyin tobeinlar asri boshlandi. Bu davrga kelib musulmonlar shavkati kundan-kun ziyoda bo’lib bordi. Tobeinlar Muhammad (s.a.v.)ning bayroqlarini mahkam ushlab, fatvo berish borasida bor g’ayratlarini sarfladi.

Muhammad (s.a.v.) sahobalaridan dars olgan tobeinlar ham fatvo borasida turli xil makon va darajalarga tabaqalana boshladi. Har bir joyda alohida katta tobeinlar fatvoga xoslandi. Shulardan:

Madina faqihlari: Said ibn Musayyib, Abu Salama ibn Abdurrahmon ibn Avf, Urva ibn Zubayr, Ubaydulloh, Qosim ibn Muhammad, Sulaymon ibn Yasor va Xorija ibn Zayd. Bu zotlar yetti fuqao deb nomlangan⁴⁰.

Makka faqihlari: Ato ibn Abu Ravoh, Aliy ibn Abu Tolha, Mujohid ibn Jabr, Amr ibn Diynor, Abdulloh ibn Ubaydulloh ibn Abu Mulayka, Abdulmalik ibn Jurayj va boshqa tobeinlar.

Kufa faqihlari: Ibrohim Naxaiy, Omir ibn Sharohbil ash-Sha’biy, Alqama, Said ibn Jubayr, Masruq ibn Ajda’, Ubayda ibn Amr as-Salmoniy, Qozi Shuryh ibn Horis, Ibrohim ibn Yazid an-Naxaiy va boshqa ko’plab tobeinlar shular jumlasidan.

Basra faqihlari: Hasan Basriy, Muhammad ibn Sirin, Abul-Oliya, Jobir ibn Zayd va Qotada ibn Di’ama as-Sadusiyy.

³⁹ Ibn Qudamah. al-Mug’ni. – Qohira: Maktabat al-Qohira, 1968. – J. 11. – B. 14.

⁴⁰ Muhammad Taqiy Usmoniy. Usulul-ifto va adabuhu. – Damashq: Dorul-qalam, 2018. – B. 54-56.

Shom faqihlari: Abu Idris Xovlaniy, Makhul ibn Abu Muslim, Roja ibn Hayva al-Kindiy, Umar ibn Abdulaziz, Shurohbil ibn Simt, Qobiysa ibn Zuayb.

Misr faqihlari: Abdulloh ibn Amr shogirdlari: Abul-Xoyr Marsad ibn Abdulloh al-Mazaniy, Yazid ibn Abu Habib.

Yaman faqihlari: Tovus ibn Kayson, Vahb ibn Munabbih, Yahyo ibn Abu Kasir.

Yuqorida zikr qilingan buyuk tobeinlarning fatvolarining aksar qismi musnadlar, sunanlar va muvattolarda zikr qilingan⁴¹.

So'ngra, din olimlari va mujtahid imomlar shar'iy masalalarni yuzaga chiqarish va far'iy o'xshashlarni aniqlash uchun butun kuch-g'ayratini sarfladi va adillayi arba'adan furu' ahkomlarini istinbot qildi.

Bu mujtahid imomlarning ittifoqlari qat'iy hujjatdir. Ixtiloflari esa keng rahmat hisoblanadi. Ular o'z usullari, qoidalari ustida masalalar barpo qildi. Hukmlarni istinbot qilish borasida usulda ham, furu'da ham biron kishiga taqlid qilmasdan Qur'on, sunnat, ijmo', qiyosga tayandi. Ularning hollari ichadigan buloqlarida va mazhablarining mashhur bo'lishida farqlidir.

Ularning mazhablariga asrlar guvoh bo'lgani, ilmlari mamlakatlarda va shaharlarda mashhur bo'lganlari:

1. Abu Hanifa No'mon ibn Sobit al-Kufiy.
2. Molik ibn Anas.
3. Sufyon as-Savriy.
4. Ibn Abi Laylo, Muhammad ibn Abdurrohman.
5. Abdurrahman al-Avzai'y.
6. Muhammad ibn Idris ash-Shofi'iy.
7. Ahmad ibn Hanbal.
8. Dovud ibn Ali al Isfahoniy.

Lekin ulardan to'rttasi: Abu Hanifa, Molik, Shofi'iy, Ahmad ibn Hanbal hidoyat bilan xoslandi. Bu to'rt mazhabga Alloh taoloning inoyati joriy bo'lib, mazhablari usul va furu'lardagi e'tiborlari mashxur bo'lib butun olam olamga yoyildi.

Kifaviyning ushbu ma'lumotlaridan ma'lum bo'ladiki, Muhammad (s.a.v.) dan nimaiki sodir bo'lgan bo'lsa: fe'l, amal, so'z, taqdir, qaror, hukm, buyruq, fatvo hammasi bir so'z bilan aytganda sunnat deyilib, Allohning kalomi Qur'oni Karimning tafsiri va bayoni bo'lib, Muhammad (s.a.v.)ning shariati edi.

Muhammad (s.a.v.)ning vafotidan so'ng Xulafoi Roshidinlar, Sahobayi

⁴¹ Muhammad Taqiy Usmoniy. Usulul-ifto va adabuhu. – Damashq: Dorul-qalam, 2018. – B. 59.

kiromlar zarracha xilof qilmasdan bu ishni davom ettirdi. Ular biron chigalroq masala sodir bo'lsa o'zaro maslahatlashib, Muhammad (s.a.v.)dan o'zlari ko'rgan o'xshash voqea va masalalarga taqqoslab o'sha masalaga hukm chiqargan. Shu tariqa to'rt dalil: Kitob, sunnat, ijmo', qiyos – islom dinining asosiga aylandi. Muhammad (s.a.v.)davrlarida tafsir, fatvo, qazo, aqoid, fiqh kitoblari bo'lmasa-da ushbu nomlar hadislarida kelgan:

عن ابن عباس ، قال : من قال في القرآن برأيه فليتبوأ مقعده من النار⁴².

Ibn Abbos (r.a.): “Kim Qur’onni o’zicha (o’z fikri) bilan tafsir qilsa. joyini do’zaxdan olaversin”, deb aytgan.

Kim menga yolg’ondan hadis to’qisa joyini do’zaxdan olaversin.

Kim ilmsiz fatvo bersa joyini do’zaxdan olaversin.

Ey Muoz! Nima bilan hukm qilasan?

عن مُعَاوِيَةَ بْنِ أَبِي سَفْيَانَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمَا قَالَ: سَمِعْتُ النَّبِيَّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يَقُولُ: مَنْ يُرِدِ اللَّهُ بِهِ خَيْرًا يُفَقِّهْهُ فِي الدِّينِ⁴³.

Muoviya ibn Abu Sufyon (r.a.)dan rivoyat qilinadi: Muhammad (s.a.v.) “Kimga Alloh taolo yaxshilikni hohlagan bo’lsa uni dinda faqih (dinni tushunadigan) qilib qo’yadi”,deb aytganini eshitganman.

Shundan ma’lum bo’ladi Muhammad (s.a.v.) dan sodir bo’lgan fatvo, qazo, imomat kabi masalalar bir nom bilan – Risolat deb yuritilgan.

Tobe’iynlar, mujtahidlar davriga kelib, diniy muqtado rahbarlar (imomlar) chiqargan qarorlarni fatvo, hukmlarni esa qazo degan nom bilan atalib, fatvo ilmi, qazo ilmi, tafsir ilmi, fiqh ilmi, yuzaga kelgan. Usul va mazhablar bo’linishiga muvofiq fatvo va boshqa ilmlar ham mazhablarning asos va qoidalari asosida shakllanib borgan.

Xulosa. Islom huquqida sud-huquq tizimi, ya’ni nizolarni hal qilish va adolatni ta’minlovchi qozilik faoliyati, shariat huquqining eng asosiy va markaziy bo’limlaridan biri hisoblanadi. Mazkur bobda olib borilgan ilmiy tahlil natijalariga ko’ra, sud-huquq tizimi shakllanishi, rivojlanishi va tizimlashuvi jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshganini ko’rish mumkin. Muhammad (s.a.v.) davrida hukm chiqarish bevosita vahiy asosida amalga oshirilgan. Qur’on va Sunnatda qozilik faoliyatining ilohiy manbalarga tayanishi aniq ko’rsatib berilgan. Muoz ibn Jabal (r.a.) voqeasida hukm chiqarish ketma-ketligi – Qur’on, Sunnat va ijtihod – metodologiya sifatida belgilangan.

⁴² Imom Termiziy. Sunani Termiziy. – Bayrut: Muassatur-risola nashirun, 2020. – B. 596.

⁴³ Imom Buxoriy. Sahihul Buxoriy. – Bayrut: Muassatur-risola nashirun, 2021. –B. 567.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur'oni Karim va uning ma'nolar tarjimasi. – Toshkent: Hilol nashr, 2022.
2. Abu Dovud. Sunan. – Bayrut: Dar al-Fikr al-'Arabi, 1987.
3. Imom Termiziy. Sunani Termiziy. – Bayrut: Muassatur-risola nashirun, 2020.
4. Vatt, V. M. Muhammad at Medina. – Oxford: Oxford University Press, 1956.
5. Ibn Hajar al-Asqalani. Fath al-Bari. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2000. – J. 12.
6. Imom Buxoriy. Sahihul Buxoriy. – Bayrut: Muassatur-risola, 2021.
7. Ibn Hisham. As-Sira an-Nabaviyya. – Bayrut: Dar al-Fikr, 1968. – J. 1.
8. Ibn Qayyim al-Javziyya. I'lam al-Muwaqqi'in 'an Rabb al-'Alamin. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1996. – J. 1.
9. Ibn Sa'd. Tabaqat al-Kubra. – Bayrut: Dar Sadir, 1957. – J. 3.
10. Ibn Qayyim al-Javziyya. I'lam al-Muwaqqi'in 'an Rabb al-'Alamin. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1996. – J. 1.
11. Shavkaniy. Nayl al-Awtar. – Bayrut: Dar al-Jil, 1973. – J. 8.
12. Al-Mavardi. al-Ahkam al-Sultaniyya. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1994. – J. 1.
13. Muhammad Taqiy Usmoniy. Usulul-ifto va adabuhu. – Damashq: Dorul-qalam, 2018.